



HOSILDORLIK ILOHALARI – ANAXITA VA ANBAR ONA

Nargiza Kamolova*UrIU Tarix kafedrası dotsenti, PhD**E-mail: kamolovanargiza@gmail.com*

Anbar ona xorazmliklarda hosildorlik ilohasi sifatida e'tirof etiladi. Anbar ona nomining shakllanishi islom madaniyatining O'rta Osiyoga kirib kelishi bilan bog'liq sanaladi. Chunki islom madaniyati kirib kelishi va keng tarqalishigacha bo'lgan davrlarda O'rta Osiyoda, xususan, Xorazm diyorida hosildorlik ilohasi Anaxita obrazi orqali ifoda etilgan. Buning sababi islomgacha bo'lgan davrlarda mazkur hududlarda zardushtiylik e'tiqodi hukmron bo'lib, Anaxita nomi ham mazkur e'tiqod natijasida yuzaga kelganligi manbalarda keltiriladi [Karomatov, 2008: 313]. Anaxita siymosi yer, suv va hosildorlik kuch-qudratini o'zida mujassamlashtirib, insonlarga mo'l-ko'lchilik, obi-hayot va tiriklik tuhfa qiladi deb qaralgan va bu obraz muqaddaslashtirilgan bo'lib, u ayol siymosida tasvirlangan. Manbalarda Anaxita uzum novdalari chirmashgan ayol ko'rinishida tasvirlanganligi yoki qo'lida chaqaloq ko'targan ayol shaklida, shuningdek, qo'lida anor ushlagan ayol ko'rinishida ifoda etilganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi [Karamatov, 2008: 306]. Zero, Anaxita yer, tuproq, dehqonchilik ramzi sifatida e'tirof etilishi bilan birga, u hosildorlik, ko'payish ramzi ham sanalgan va o'zida buyuk sehrli kuchni mujassamlashtirgan muqaddas iloha darajasiga chiqarilgan. Xorazm vohasida joylashgan Qo'yqirilgan qal'adan topilgan taxtda o'tirgan holda chaqaloq emizayotgan ayol haykalchalari mazkur hududda Anaxita timsolining mo'l hosillik va avlodlarning davom etishini ta'minlaydigan muqaddas ona iloha sifatida ham qaralganligini tasdiqlaydi. Bunday shakldagi sopol haykalchalarga S.Tolstov o'zining asarida "Xorazm madonnasi" deya ta'rif berganligi manbalarda keltiriladi [Karomatov, 2008: 306]. Anaxita Avestoda "Pokiza", "Ilohiy soflik" ma'nolarida ta'riflanadi. Markaziy Osiyo hududlariga, xususan, Xorazm vohasiga islom dinining kirib kelishi va xalqlarning musulmonlashuvi natijasida dehqonchilik bilan bog'liq e'tiqod masalalari ham o'ziga xos islomiy transformatsiyaga uchraydi. E'tiqod va marosim bosh qahramonlari islomiy tarzda obrazlashadi. Jumladan, hosildorlik, yer, tuproq va suv ilohasi Anaxita o'rnini Anbar ona obrazi egallaydi. Anbar ona Anaxita ilohasining musulmonlashuv davridagi davomchisi sanalib, u ham o'zida tug'ilish, hayot, dehqonchilik, yer va suv ilohasi xislatlarini mujassamlashtiradi. Xorazm mifologiyasida Anbar ona obrazi bilan bog'liq bir qancha afsonalar vujudga kelgan [G'ulomov, 1957: 31]. Jumladan, Amudaryo suvlarining qo'riqlovchisi va egasi Er Xubbi yoki Xubbi haqidagi afsonaning asosiy qahramoni sifatida ham Anbar ona gavdalanadi. Ushbu afsonaga ko'ra, Amudaryo vujudga kelgan va suvlari qirg'oqlardan toshib oqqan davrlarda uning suvlarini qo'riqlash Xubbi ismli daryo ilohining zimmasida bo'lib, mazkur iloh





Amudaryoning tub qismida yashagan. Xubbi insonlarga to‘r yasab, baliq tutishni va uni pishirishni o‘rgatgan. Shu tariqa keyinchalik vohada baliqchilik va to‘quvchilik kasblari vujudga kelgan. Kunlardan birida Xubbi to‘satdan g‘oyib bo‘ladi. Afsonaning mazkur qismidan Anbar ona obrazi yuzaga chiqadi. U Xubbining onasi sanalib, g‘oyib bo‘lgan o‘g‘lini izlash maqsadida o‘ziga qayiq yasaydi va mazkur qayiqda daryo suvlarida o‘g‘li Xubbini izlagani aytiladi. Bu afsonaga ko‘ra kemachilik kasbining vujudga kelishi aynan Anbar ona bilan bog‘liq ekanligi uqtiriladi. Chunki vohada ilk kema aynan Anbar ona tomonidan o‘g‘lini izlash maqsadida yasalgan deyiladi. Mahalliy aholi orasida esa qayiqlarning bosh ilohasi sifatida aynan Anbar ona ulug‘langan va mazkur odat bilan bo‘g‘liq qarashlar hozirgi kungacha daryo bo‘ylarida yashaydigan va daryoda baliqchilik bilan shug‘ullanadigan aholi orasida saqlanib qolgan. G.P. Snesev “Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlarini” nomli asarida Anbar ona obrazi haqida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi. Unga ko‘ra, Anbar ona ilk bug‘doy donlarini o‘stirgan va undan taom tayyorlagan. Musulmonlarning yil boshi sanalgan har yilgi Navro‘zda mazkur taomni tayyorlashlarini ayollarga vasiyat qilib qoldirgan va shu taxlit Anbar ona tomonidan bug‘doy donlarini yanchib tayyorlangan bu taomni tayyorlash an’anaga aylanib borgan. Musulmonlarning yil boshi Navro‘zda tayyorlanadigan sumalak shu tariqa vujudga kelganligi aytiladi [Snesev, 2018: 234]. Sumalak tayyorlanishi bilan bog‘liq yana bir afsonada esa ayollar sumalakni pishirib bo‘lgach, go‘yoki Anbar ona kelib, sumalakdan tatib ko‘rish uchun qozon atrofini ma’lum muddatga tark etganlar. Mazkur odat Xorazm vohasida kunimizga qadar saqlanib qolgan. Shuningdek, Anbar ona ayollar ilohasi sanalgan. Homilador yoki befarzand ayollar Anbar ona nomiga iltijo qilib farzand ato etishini so‘rab, ibodat qilganlar. Anbar ona timsoli keng qamrovli sanalib, nikoh marosimlarida ham uning nomi tilga olinadi. Xususan, uzatilayotgan qiz ota uyidan chiqishi oldidan Anbar onaga murojaat qilib, go‘yoki undan oq fotiha olingan. Hosildorlik, yer, suv homiylari sifatida markaziy obraz ayollar siymosida gavdalanirishi bejiz emas. Chunki ayollar qadimdan ko‘payish va naslning davom etishini ta’minlaydigan asosiy vosita sanalgan. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Anaxita musulmonlashishgacha bo‘lgan davrlarda hosildorlik va dehqonchilik ilohasi sifatida e’tirof qilingan bo‘lsa, musulmonlashishdan keyingi davrlarda uning nomi Anbar onaga ko‘chganligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кароматов Х. Ўзбекистонда мозий этикодлари тарихи. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2008. – 664 б.
2. Гулямов Я. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Издательство Академии Наук Узбекской ССР, 1957. – 323 с.



3. Снесарев Г. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари / С.Р.Рўзимбой таржимаси. – Урганч: Мангулик жамоли, 2018. – 348 б.

